

MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUQTIDAGI BUZILISHLAR

Kalit soʻzlar: nutq, kamchilik, organik, klinik, funksional, korreksiya

ANNOTATSIYA : Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqida uchraydigan nutq kamchiliklari va ularning kelib chiqish sababalari, klinik-pedagog tasnif, logopediya faniga oid ma'lumotlar keltirilgan.

ANNOTATION: This article provides information on speech defects in the speech of preschool children and their causes, clinical-pedagogical classification, and the science of speech therapy.

Maktabgacha ta'lim tarbiya muassasalarida ta'lim – tarbiya oluvchi har bir bolani zamon talabi asosida har tomonlama shakllangan shaxs bo'lib jamiyat ishlarida faol qatnashishiga, nutqning to'g'ri rivojlanishi juda katta ahamiyatga ega. Chunki, nutq bu kishilararo aloqa quroli, milliy boylik hamda tarbiya, maorif va ijodiyot, uchun qudratli vositadir. Shu bois har bir insonning nutqni puxta egallashga, o'z fikrini to'liq ifoda etishga o'rgatish lozim. Demak, nutqning to'g'ri tarkib topishi atrofdegilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to'g'ri muhit va ta'lim – tarbiyaga bog'liq. Nutqiy faoliyatni nutqdagi o'ziga xosliklardan ajratish imkonini beruvchi asosiy xarakteristikalar: nutq rivojlanishining so'zlayotgan odamning yoshiga mos emasligi; nutqdagi ruhiy jismoniy mexanizmlar rivojlanishida og'ishlarning mavjudligi; noto'g'ri talaffuz shaxsning umumiy rivojlanishi darajasiga va ushbu til muhitidagi talaffuzning o'ziga xos jihatlariga mos emasligi; buzilishlar o'z o'zidan o'tib ketmaydi va tuzatish kiritilishini talab qiladi; nutqiy faoliyatidagi buzilishlar umumiy ruhiy rivojlanishga va shaxsning ijtimoiylashuvi jarayoniga ta'sir ko'rsatiga qodir. Buzilish deganda, undagi ruhiy-jismoniy buzilishlar bilan izohlanuvchi nutqiy faoliyatning odam yashaydigan til muhitida qabul qilingan me'yordan og'ishi tushuniladi. Nutqdagi buzilishlar sababi sifatida fanda tashqi va ichki omillar yoki ular birligining turli xildagi nuqtiiy buzilishlarga olib keluvchi ta'siri tushuniladi. Ammo bunday buzilishlarga olib kelmaydigan omillargina sabablar deb hisoblanishi mumkin. Patologiya bo'limida etiologiya deb nomlanuvchi sabablar to'g'risidagi maxsus ta'limot mavjud. Nutqdagi buzilishlar sabablarini jadal o'rganish XX - yillardan boshlangan. Bunda ilk bor sabablar ichki (endogen) va tashqi (ekzogen) turlarga ajratilgan. Buni M. Ye. Xvatsev taklif etgan, va u ayni paytda ular o'rtasidagi zich bog'liqni ta'kidlagan. Bundan tashqari, u mavjud sabablarni organik, funksional, ijtimoiy-ruhiy va psixonevrologik turlarga ajratgan. **Organik sabablarga** eng avvalo, tug'ruqqacha va tug'ruqdan keyingi davrda, shuningdek tug'ruq paytidagi shikastlanish kiradi. Bundan tashqari, nutqdagi buzilishlarga periferik nutq apparatidagi har qanday

organik buzilishlar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu orqali Xvatsev nutq buzilishi organik sabablarini markaziy va periferik turlarga ajratadi. Birinchi turiga miyaning turlicha buzililari kiradi. Ikkinchisiga – eshitish organlari buzilishi, tanglaydagi jarohatlar va artikulyatsiya apparatidagi boshqa buzilishlar kiradi. **Funksional sabablarni** ajratishda Xvatsev P. Pavlovning markaziy asab tizimidagi qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari nisbatidagi buzilishlar to'g'risidagi qarashlariga tayanadi. **Ijtimoiy-ruhiy sabablarga** atrof-muhitdagi turli-tuman nomaqbul ta'sirlar kiritilgan. **Psixonevrologik sabablarga** aqliy qoloqlik ham, xotira va e'tiborning tarqoqligi ham, va ruhiyatga oid boshqa buzilishlar kiradi. **Ekzogenno-organik omillar** ta'siri ostidagi, ya'ni markaziy asab tizimiga va butun organizmga nomaqbul ta'sir ostidagi nutqiy buzilishlar nihoyatda keng taqalgan. Perinatal patologiyada (homilaning qorinda rivojlanishi) tug'ruq jarohati va asfiksiya (kislorod taqchilligi) eng nomaqbul ta'sir ko'rsatadi. Miyaning homila qorin ichidaligi paytida jarohatlanishi (virusli kasalliklar, dorivor preparatar, radiatsiya, alkogolizm, chekish) oqibatida nutqdagi o'ta og'ir buzilishlar kuzatiladi.

Nutqqa oid asosiy buzilishlar: Dislaliya – eng ko'p uchraydigan nutqiy buzilish turi. Bu eshitish va ko'rish apparati maqbul ishlab turganda tovushga taqlid qilish me'yoridan og'ishda ifodalanadi. Dislaliya tovushlarni me'yordan og'ib talaffuz qilinishida, bir tovushning o'rniga ikkinchi tovush qo'llanilishida, ularning aralastirib yuborilishi yoki tushurib qoldirilishida namoyon bo'lishi mumkin. Rinolaliya dislaliyadan nazallangan ovoz tembri bilan farqlanadi. Ovoz tembri va tovush talaffuzi nutq apparatining anatomiya-fiziologik nuqsonlari ta'siri ostida buzilgan. Oqibatda tovushlar artikulyatsiyasi me'yordan jiddiy chetlangan bo'ladi. Dizatriya nutq apparati innervatsiyasining yetishmovchiligi keltirib chiqaradi. Dizatriyada artikulyatsiya, tovush hosil bo'lishi, sur'at, ritmi va intonatsiyadagi buzilishlar to'g'rdan to'g'ri markaziy va periferik asab tizimi shikstlanishiga bog'liq bo'ladi. Tovushdagi buzilishlar tovush apparatidagi patologik o'zgarishlar oqibatida fonatsiyaning yo'qligi yoki buzilishidan kelib chiqadi. Amalda tovushning mutlaqo yo'qligi (afoniya), yoki tovush balandligi, kuchi va tembrining qisman buzilishi (disfoniya) aniqlangan. Duduqlanish logopediyadagi eng qadimgi mummo hisoblanadi. Duduqlanishda nutqning sur'atli-ritmiq tuzilishi buziladi. Bunga nutq apparati mushaklarining holati olib keladi. Hozirgi paytda duduqlanish murakkab psixofiziologik buzilish deb ta'riflanadi. Alaliya homila ona qornida bo'lgan paytda yoki bolaning ilk rivojlanish davrida bosh miya po'stlog'i nutq zonolari shikastlanishi oqibatida kelib chiqadigan nutqning yaxshi rivojlanmaganidir.

Afaziya bosh miyadagi jiddiy buzilishlar natijasida nutq layoqatining to'liq yoki qisman yo'qotilishidir. Unga xos sabablarga miya qon aylanishi buzilishi

(ishemiya, gemmoragiya), jarohatlar, shishlar va bosh miyaning yuqumli kasalliklari kiradi.

Yozma nutq buzilishlari o'qish jarayonining buzilishi (aleksiya, disleksiya) va yozish jarayonining buzilishiga (disgrafiya, agrafiya, dizorfografiya, evolyusionnaya disgrafiya) bo'linadi.

Nutqida buzilishlar bor bolalarning klinik-psixologik-pedagogik xarakteristikasi:

- bolaning umumiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.
- bolalar ustidan ko'pincha tengdoshlari kuladi, bu esa ularning o'ziga bo'lgan ishonchi yo'qolishiga, uyatchan va qat'iyatsiz bo'lishiga sabab bo'ladi,
- bu jiddiy komplekslarni keltirib chiqarishi mumkin, va bu nuqsonning rivojlanishiga, o'ziga va o'z kuchiga bo'lgan ishonchsizlikning kuchayishiga olib kelishi mumkin.
- Bola muloqotdan qocha boshlashi mumkin, bu esa shaxs ijtimoiylashuvi jarayoniga ta'sir ko'rsatadi.
- turli xil yo'ldosh buzilishlar va ruhiy rivojlanishda, emotsional-iroda sohasida orqada qolish, xotira, diqqat, anglash faoliyatining yomonlashuvi kuzatiladi.

Bunday bolalarga ko'pincha quyidagi xususiyatlar xos:

1) harakatlanish faolligiga qo'zg'aluvchanlik. Bola bir joyda o'tirishga va uzoq vaqt bitta faoliyat turi bilan shug'ullanishga qiynaladi, uning qo'l va oyoqlari doimiy harakatda. Bola mashg'ulot paytida ham turib, yuradi, pedagogga e'tibor qilmaydi, mashg'ulotlar orasidagi tanaffusda haddan ziyod faollashadi, jismoniy faoliyatdan aqliy faoliyatga o'tishi qiyin kechadi. Ba'zan aksincha bo'ladi, to'xtab qolish va bo'shashganlik xos bo'lgan bolalar uchraydi, ular:

2) **emotsional jihatdan beqaror bo'ladi.** Bunday bolalarning kayfiyati xursandchilikdan yig'loqilikka, xafalikdan tajavuzkorlikka va h.z. keskin va tez-tez o'zgarib turishi mumkin, ba'zan tajavuzkorlik, tashvishlanish, xavotirlanish alomatlari kuzatilishi mumkin. Yoqimsiz tanbeh, yomon baho, boshqa bolalar bilan to'qnashish g'azablanish, qahrga va hatto ruhiy buzilishga olib kelishi mumkin;

3) ish qobiliyatining, shu jumladan aqliy ish qobiliyatining sustligi. Bola faqat o'ziga xos bo'lgan ma'lum sur'atda va qisqa vaqt davomida ishlay oladi, so'ngra charchoq kuzatiladi;

4) tez charchash. Bolalar tez charchaydi, charchoq yig'ilib, asabiylikka va yomon kayfiyatga sabab bo'lishi mumkin;

5) o'zini yomon his qilish. Bunday bolalar bosh og'rig'idan aziyat chekadi, ko'ngli ayniydi va boshi aylanadi, issiqlik va dim havoga chidamsiz;

6) harakatlari muvofiqlashtirilmagan va muvozanatni saqlay olmaydi;

7) xotirasi, diqqati, tushunishi yaxshi emas;

8) o'z harakatlarini sust nazorat qila oladi.

Yuqorida ko'rsatilgan nutq buzilishlarining o'z vaqtida bartaraf etishda ota-onalar, pedagoglar, logopedlarning hissasi katta. Nutq buzilishlarining nuqsonga aylanishini oldini olish o'sib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama komil inson bo'lib yetishishlarida katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar: L.R.Mo'minova Logopediya 2014 y